

ANUSHTEGINIYLAR SULOLASINING TASHQI SIYOSATINING YOZMA MANBALARDA AKS ETISHI

Abdug'afforov Bahodir Jamoliddin o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti

Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi 1-bosqich magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11205043>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazmshohlar sulolasining asoschisi Anushteginning yozma manbalardagi ma'lumotlari haqida fikr boradi.

Kalit so'zlari: Anushteginiylar, Xorazmshohlar, Turkiylar.

THE REFLECTION OF THE FOREIGN POLICY OF THE ANUSHTEGIN DYNASTY IN WRITTEN SOURCES

Abstract. This article discusses the information of Anushtegin, the founder of the Khorezmshah dynasty, in written sources.

Key words: Anushtegins, Khorezmshahs, Turks.

ОТРАЖЕНИЕ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ ДИНАСТИИ АНУШТЕГИНОВ В ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются сведения об Ануштегине, основателе династии хорезмшахов, в письменных источниках.

Ключевые слова: Ануштегины, хорезмшахи, тюрки.

Anushteginiylar - kelib chiqishi turkiy xalqlardan bo'lgan Anushtegin asos solgan Xorazmni, Eronni va Kavkazorti davlatlarni boshqargan sulola (1097-1231)¹.

Dastlab Saljuqiylar davlatiga qaram bir viloyat sifatida bo'lgan. Saljuqiylar davlati hukmdori Malikshoh o'z noiblaridan biri Anushteginni Xorazmga hokim qilib tayinlaydi. Keyinchalik Saljuqiylar davlati zaiflashganidan so'ng Xorazm mustaqillikni qo'lga kiritadi. Davlatga 1077-yilda asos solingan va mo'gullar bosqini tufayli o'z mustaqilligini yo'qotib, tarix sahnasidan o'chirilgan. Taxminlarga ko'ra, sulola 2,3 milliondan 3,6 million kvadrat kilometrgacha bo'lgan maydonni egallagan².

Xorazmshohlar sulolasining asoschisi Anushtegin yoshligida (As-Saolibiyning "Latoif ul-maorif" ("Ajoyib ma'lumotlar"³) Garjistonda yashagan turk quli edi. (manbalarda uni mamluk deyilgan, mamluklar qul ham, yollanma jangchi ham bo'lishi mumkin).

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Anushteginiylar>

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Anushteginiylar>

³ As-Saolibiyning "Latoif ul-maorif" ("Ajoyib ma'lumotlar")

Tarixchilar Rashididdin va Xofizi Abru⁴ uning o'g'uz turklarining Bekdili urug'idan deb yozishadi. (Rashididdin, I tom, sahifa 311 forscha: va Xamchunin sulton Muhammad Xorazmshoh jaddin a'lo Anushtakin Garjoiy bud ham az najod-o'g'uz az avlodi Bekdili bud). Anush-taginni yoshligida isfahsolor Izziddin Onar (Unar) Bilgitagin (vaf. 1098) sotib olgan va u saljuq sultoni Malikshoh I (1072-1092) ning saroy a'yonlaridan biri, sulton hovuzlari va hammomlari ashyolarining xazinachisi - tashtdorlik⁵ mansabida edi.

Tashtdorlik, mansabiga sulton juda ishonchli odamlarini tayinlar edi va ko'p o'tmay, Anushtegin sultonning yaqinlaridan biri bo'lib qoldi. Tashtdorlik uchun zarur xarajatlar u zamonda Xorazm viloyatidan kelib turgani uchun sulton Malikshoh xos, yaqin odami Anushteginni Xorazm mutasarifi (sarfllovchisi⁶) mansabiga tayinlab, unga Xorazm shixnasi (raisi, qal'a boshlig'i) unvonini bergan edi.⁷ Bu vaqtda Xorazm hokimi sulton Malikshoh I, ya'ni bo'lg'usi ulug' sulton Sanjarning o'g'liga tobe mamluk Ekinchi ibn Qo'chqor bo'lib, u bir necha yillar davomida Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy voqealarning faol ishtirokchisi edi. Shuning uchun ham Xorazm shixnasi Anushtegin u vaqtda Xorazmda hokimiyat ishlariga aralasha olmas edi.

Sulton Barqyoruq (1094-1104) zamonida saljuqlar saltanatining sharqiy viloyatlari Xuroson amiri Dodbek Xabashiy ibn Oltintosh qo'l ostida edi. U saljuqiylar sulolasi vakillarining o'zaro nizolari va urushidan ustalik bilan foydalanib, 1097 yilda saljuqlardan ajralib chiqib, mustaqillikka erishdi. Shu yili Anushtagin vafot etdi.

Xuroson hukmdori Dodbek Xabashiy (uning otasi Oltintosh sulton Mahmud G'aznaviyning yaqin amirlaridan bo'lib, Xorazmni boshqarib turgan edi.)⁸ mansabdan chetlashtirilgan Ekinchi ibn Qo'chqor o'rniga Anushteginning o'g'li Qutbiddin Muhammadni Xorazm voliysi qilib tayinladi. U Xorazm muqto'si (iqto' egasi) bo'ldi va Xorazmshoh laqabini al-Asir (rutbasi, martabasini⁹) oldi. Anushteginiy Xorazmshohlar sulolasining tarixi aslida mana shu Xorazmshoh Qutbiddin Muhammaddan boshlanadi.

Alouddin Otsiz otasining taxtiga o'tirganida 29 yoshda edi. U ham otasiga o'xshab, sulton Sanjarning poytaxti Marvda yaxshi ta'lim olgan edi. Otsiz mu- sulmonlar podshohiga xos islom diniga va ilohiyot olimlariga homiylik qilishdan tashqari, turli fan- lar va san'at ahlini qadrlar,

⁴ Rashididdin Fazlullohnin "Jome at-tavorix" asarlari I tom, sahifa 311.

⁵ Buniyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231) // A. Ahmad va M. Mahmud tarj.; Mas'ul muhar- rir; X. Sodiqov/. -T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1998. — 7 b

⁶ Abulma'oliy Ziyovuddin Abdulmalik ibn Abdulloh Juvayniy "Tarixi jahongushoy" asari I Tom sax 278.

⁷ Abulma'oliy Ziyovuddin Abdulmalik ibn Abdulloh Juvayniy "Tarixi jahongushoy" asari I Tom sax 278.

⁸ Ibn al-Asir Izzuddin Abulhasan Ali, "Alkomil fitta'rix" (Tarix bo'yicha mukammal asar") 8-tom, sah. 184.

⁹ Abulfido Imoduddin Ismoil ibn Ali al-Ayyubiy, „Al-Muxtasar fi tarix al-bashar“ („Bashariyatning qisqacha tarixi“) 4-tom, sah. 124

o‘zi ham forscha qasida va ruboiylar, yozar, juda ko‘p buyuk shoirlarning baytlarini yoddan bilar edi. U Xorazm aholisiga g‘amxo‘r, adolatli podshohlik qildi. Bir manbada aytilishicha, fuqarolar Xorazmshoh Otsizni yaxshi ko‘rar, uning zamonida fuqarolar xavf-xatardan mutlaqo xoli, tinchlik va osoyishtalikda, adolatda yashadi.

Alouddin Otsiz jasur sarkarda edi, janglarda tolei kulib boqar, sulton Sanjar xizmatida juda ko‘p g‘alabalarga erishgan edi. Bu bilan o‘z homiysi (syuzereni) dargohida yuksak izzat-hurmat qozongan edi. Bir marta u buyuk sulton Sanjarni o‘limdan qutqarib qoldi va bu bilan yanada obro‘yi ziyoda bo‘ldi.¹⁰

Sulton Sanjarning barcha harbiy yurishlarida Otsiz uning yonida bo‘lgan. Sulton boshqa bir jiyani - Ma’sud ibn Muhammad Topar (1133-1152) bilan jang qilganida Otsiz qo‘shinining Javong‘ori chap qanotiga qo‘mondonlik qilgan edi. Sulton Sanjar va Ma’sud o‘rtasidagi bu jang hijriy 526 yilning 8-rajabida (1132 yil, 26 mayda)¹¹ Xamadon yaqinidagi Doy-Marg degan mavzeda yuz bergan va Sulton Sanjar g‘alabasi bilan tugallangan edi.¹² (Bu voqealar Sadriddin Ali al-Xusayniyning «Zubdat-ut-tavorix», «Tarixi fi ax- bor as-Saljuqiya» asarida keng yoritilgan.

Xorazmshoh Otsiz sulton Sanjar farmoni bilan Balx qal‘asining qutvoli¹³ (komendanti) bo‘lib turgan edi. Sulton qo‘shini bilan Balxga yetib kelganida u lashkarni oziq-ovqat bilan, otlarini yem-xashak bilan ta‘minlar edi. Sulton Sanjarning bu kelishida Xorazmshoh o‘z yurtiga (Xorazmga) ketishga ruxsat so‘radi. Sulton uning tilagini inobatga oldi. Xorazmshoh Otsiz Balx qal‘asidan chiqib ketishi bilan sulton Sanjar vaziru-vuzarolariga qarab, «Bu odamni endi boshqa ko‘rmayman» dedi Shunda a‘yonlari sultondan «Unday bo‘lsa, ne uchun uning Xorazmga qaytishiga ruxsat etdingiz?» deb so‘radilar. Sulton Sanjar aytdi: «Bu odamning bizga qilgan xizmatlari borki, biz uning oldida ancha-muncha burchlimiz, unga ziyon-zahmat yetkazish bizning himmatli va muruvvatli bo‘lish istagimizga to‘g‘ri kelmaydi»¹⁴.

REFEERNCES

1. Ibn al-Asir Izzuddin Abulhasan Ali, "Alkomil fitta'rix" (Tarix bo‘yicha mukammal asar") 8-tom, sah. 184.
2. Sadriddin Ali al-Xusayniy, «Tarixi fi ax- bor as-Saljuqiya».
3. Sadriddin Ali al-Xusayniy, «Zubdat-ut-tavorix».

¹⁰ Ibn al-Asir Izzuddin Abulhasan Ali, "Alkomil fitta'rix" (Tarix bo‘yicha mukammal asar") 8-tom, sah. 184.

¹¹ Sadriddin Ali al-Xusayniy, «Tarixi fi ax- bor as-Saljuqiya».

¹² Sadriddin Ali al-Xusayniy, «Zubdat-ut-tavorix».

¹³ Mirxond, 4-tom „Ravzat us-safo“

¹⁴ Abulma‘oliy Ziyovuddin Abdulmalik ibn Abdulloh Juvayniy "Tarixi Jahongushoy" asari 1-tom

4. Mirxond, 4-tom [„Ravzat us-safo“](#)
5. Abulma'oliy Ziyovuddin Abdulmalik ibn Abdulloh Juvayniy "Tarixi Jahongushoy" asari 1-tom
6. Buniyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231) // A. Ahmad va M. Mahmud tarj.; Mas'ul muhar- rir; X. Sodiqov/. -T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1998. — 7 b
7. Abulma'oliy Ziyovuddin Abdulmalik ibn Abdulloh Juvayniy "Tarixi jahongushoy" asari I Tom sax 278.
8. Abulma'oliy Ziyovuddin Abdulmalik ibn Abdulloh Juvayniy "Tarixi jahongushoy" asari I Tom sax 278.
9. Ibn al-Asir Izzuddin Abulhasan Ali, "Alkomil fitta'rix" (Tarix bo'yicha mukammal asar") 8-tom, sah. 184.
10. Abulfido Imoduddin Ismoil ibn Ali al-Ayyubiy, „Al-Muxtasar fi tarix al-bashar“ („Bashariyatning qisqacha tarixi“) 4-tom, sah. 124